https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

M.Sh.Eshnazarov
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti assistent

DUNYO KO‘MIR SANOATIDA “SHARG‘UN KO‘MIR” AJ NING O‘RNI

Anatatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston ko‘mir sanoatida, xususan Surxondaryodagi Sharg‘un ko‘mir AJning iqtisodiy va texnologik ahamiyati yoritiladi. Mustaqillikdan keyingi davrda konchilik tarmog‘ini rivojlantirish, prezident farmon va qarorlari asosida Sharg‘un konini modernizatsiya qilish hamda yiliga 900 ming tonnagacha ko‘mir qazib olish loyihasi mazmuni ochib beriladi. Maqolada konning tarixiy rivojlanish bosqichlari, mavjud zaxira va yangi tunnel qazish ishlari, zamonaviy kambaynlar yordamida ko‘mir qazib olishning iqtisodiy va xavfsizlik afzalliklari hamda transport tizimini takomillashtirish, jumladan temiryo‘l transportidan foydalanish samaradorligi ilmiy-amaliy jihatdan asoslab ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar.

Sharg‘unko‘mir AJ; O‘zbekiston ko‘mir sanoati; toshko‘mir zaxiralari; konni modernizatsiya qilish; kombayn bilan qazib olish; konchilikda xavfsizlik; iqtisodiy samaradorlik; temiryo‘l transporti; Surxondaryo ko‘mir konlari.

Mamlakatimizda mustaqillika erishganimizdan keyin barcha sanoatlarda bo‘lgani kabi ko‘mir qazib olish sanoati ham rivojlana boshladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining konchilik sohasiga qaratgan yuksak etibori o‘laroq “Sharg‘unko‘mir”AJni modernizatsiya qilish, loyiha quvvatini yiliga 900 ming tonna ko‘mirga yetkazish" ishchi loyihasini bajarish tog‘risidagi quydagi farmonlari elon qilindi. 2017-yil 30 aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Sariosiyo tumanidagi Sharg‘un ko‘mir konida olib borilayotgan ishlar bilan tanishdi. Davlat rahbarining joriy yil 7-martdagi - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2727-son qarori muvofiq

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

“O‘zbekko‘mir” aksiyadorlik jamiyati boshqaruv tizimi takomillashtirilib, ko‘mir sanoatini barqaror rivojlantirishga yo‘naltirilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu ko‘mir konining qurilishi 1943 yilda boshlangan. «Sariosiyo» temir yo‘li bekatidan «Toqchiyon» (hozirgi Sharg‘un shahri) 12 kilometr uzunlikdagi temir yo‘l shaxobchasi qurildi, ko‘mir tashish uchun 18 kilometr uzunlikdagi osma-yuk kanat yo‘li, hodimlarni va tovar moddiy boyliklarini tashish uchun 20 kilometr masofaga avtoyo‘l qurildi. 1958 yili Sharg‘unko‘mir koni ishga tushirilib, yiliga loyiha quvvati 400 ming tonnaga mo‘ljallangan edi.

Sharg‘un ko‘miri sifatining yuqoriligi, zaxirasi ko‘pligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Bugungi kunda bu yerda 2017-2020 yillarga mo‘ljallangan 105,5 million dollarlik loyiha amalga oshirilyapti. Xitoy bilan hamkorlikdagi ushbu loyiha natijasida 2021 yildan boshlab bir yilda 900 ming tonna toshko‘mir qazib olinadi. 600 ta ish o‘rni yaratiladi. “O‘zbekenergo” aksiyadorlik jamiyatining Angren va Yangi-Angren issiqlik elektr stansiyalari, sement zavodlari, aholi va boshqa iste’molchilarga toshko‘mir yetkazib berish ko‘payadi. Ayni paytda konning asosiy zaxirasi tomon tunnel qazib borilmoqda. Hozirgacha 2 kilometrdan ziyod shunday yo‘l qurildi. Yana 1,5 kilometrdan so‘ng, 33 million tonnalik asosiy ko‘mir zaxirasiga yetib boriladi. Shundan so‘ng asosiy ishlar boshlanadi. Davlatimiz rahbarining Surxondaryo viloyatiga tashrifi vaqtida toshko‘mir qazib chiqarishni rivojlatirishning asosiy yo‘nalishlari haqida ma’lumot berildi. “Bunday sifatli ko‘mir hech qayerda yo‘q. Aql, ilm bilan undan samarali foydalanib, xalqimiz manfaati uchun ishlatishimiz kerak”, dedi davlat rahbari.Shu yerning o‘zida “Sharg‘unko‘mir” aksiyadorlik jamiyatini moderizatsiya qilish, Boysun va Sherobod tumanlaridagi konlarda ko‘mir qazib chiqarishni tashkil etish, Sariosiyo tumani va Sharg‘un shaharchasini 2019-2020 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish loyihalari taqdimoti ham o‘tkazildi.

Bu kon laximlarida qazib olish ishlari maxsus kambayn yordamida amalga oshiriladi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Kambayn bilan qazishning foydali jihatlari

- Iqtisodiy jihatdan kam harajat
- Hafsizlik nuqtai nazaridan hafsiz
- Uzun kon lahimlarini olitishni kamaytiradi
- Yuqori unumdorlik bilan ishlaydi

- Iqtisodiy jihatdan kam harajat ekanligi – ko‘mirni qazib chiqarishda eng arzon usul sifatida ochiq usulda qazib olish hisoblanadi.Sharg‘un ko‘mir koni asasan ko‘mirni yer usuldia qazib oladi qisman esa ochiq usulda qazib oluvchi uchaskalar ham mavjud.kambayin yordamida qazil olishda komirni katta miqdorda qazilib olinadi va qo‘shimcha laxim o‘tishga ketadigan harajatlar tejaladi

- Hafsizlik quntai nazaridan esa – kambayin yordamida qazil olishda konda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan baxtlis hodisalarni oldi oladi .

- Uzun kon lahimlarini o‘tishni kamaytiradi – yanki qazib olish mabaynida ko‘plab uzundan uzun kon lahimlarini o‘tishni kamaytiradi, yaniki kambayn 45º burchak ostida joylashabiy olib ko‘mirni qazil olaveradi va o‘zining harakat yo‘nalishi bo‘ylab ko‘mirni qazib oladi.

- Zamonaviy texnikalardan foydalanish ishning yanada tez va katta hajmda bajarilishi taminlaydi bu kabi kambaynlarda maxsus gidravlik mustaxkamlagichlar bilan jihozlangan bo‘ladi.

Bundan tashqari yana yuk tashishni osonlashtirish uchun transport tizimiga bazi bir o‘zgartirishlarni kiritishimiz kerak bo‘ladi. Biz taklif etadigan uslublardan biri temiryo‘l tranportini foydalanishni taklif qilmoqchimiz bu bilan ko‘mirni yanada osonroq va arzonroq tashish va yetkazib berishni osonlashtiradi. Hududiy joylashuviga ko‘ra Sharg‘un komir koni temir yol transportidan foydalanish uchun hududdan tawiladigan kon massasi aylanmasi yetarlicha bo‘lishi kerak

- Qisqa tashish masafosida katta hajmdagi yuklarni transport qilishning markazlashgan (bir) tomonlama yo‘nalishiga ega bo‘lishi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

- Transport vositalari yuklash punkiti (kavjoyni) va yukni to‘kin punktlarini doimiy o‘zgarib turishi tufayli transport kommunikatsiyalarini davri surilib turishi
- Yukni tashish yo‘nalishida transport vositalarining malum balandlikka ko‘tarilishi zarur ekanligi

Shuncha holatlarni hisobga olgan holda agarda karyerlarning yillik yuk aylanmasi katta (1mln.t va undan ham ko‘p) va tashish masofasi (4 km va undan ham ko‘p) bo‘lgan karyerlarda temirto‘l tranportidan foydalanish samarali hisoblanadi va maqsad muvofiq deyishimiz mumkin.